
Farg'ona shahar hokimligining bildirishi

“Mahalla” gazetasining 2019 yil 17-21 noyabr, 49 sonida “Qog'ozda qolayotgan va'dalar yoxud fuqarolar ishonchi nega so'nmoqda” sarlavhali maqola chop etilgan.

Ushbu maqolada bildirilgan mulohazalar shahar hokimligining tegishli bo'lim va boshqarmalari tomonidan atroflicha o'rganib chiqildi.

O'rganish davomida ichki yo'llarni ta'mirlash, elektr ta'minotini yaxshilash, sizot suvlar sathini pasaytirish uchun qurilgan zovurlarni tozalash ishlarini amalga oshirilishi, ko'priklarni ta'mirlash lozim, deb topildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 17 yanvardagi “Aholi muoamolari bilan ishlash tizimining yanada takomilashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi farmoniga asosan “Obod mahalla” dasturiga kiritiladigan mahalla fuqarolar yig'inlari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalari bilan kelishilgan holda shakllantiriladi.

Farg'ona shahar hokimligi aniqlangan mummolarni bartaraf etish maqsadida Farg'ona shahar, “Ipak yo'li” mahalla fuqarolar yig'inini 2021 yilgi “Obod mahalla” dasturiga kiritish bo'yicha Respublika komissiyasiga taklif berdi.

Binobarin, aholi punktlarini me'moriy qiyofasini tubdan yangilash, hududlarni kompleks rivojlantirish, yo'l-transport infratuzilmasi muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini va ijtimoiy soha ob'ektlarini barpo etish ishlari 2021 yilgi “Obod mahalla” dasturi asosida amalga oshirilishi rejalashtirilgan.

2020-01-28 17:04:13